O‘ZBEKISTON SSR ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARINING 1970-1980-YILLAR FAOLIYATI TARIXIY TAHLILI

Murtazayev Dilshod Baxtiyarovich
Navoiy davlat universiteti katta o’qituvchisi, tadqiqotchi
dilshodmurtazayev@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada 1970-1980-yillarda O‘zSSR Yustitsiya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari faoliyatining qayta tiklanishi hamda huquqiy-tashkiliy rivojlanish bosqichlari, sovet davri adliya organlarining qonunchilik loyihalarini tayyorlash, yuridik xizmat, notariat va FHDYo tizimini muvofiqlashtirishdagi o‘rni hamda ushbu tuzilmalarning mafkuraviy-siyosiy hamda moddiy-texnik qiyinchiliklari tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, «qayta qurish» va mustaqillik ostonasidagi murakkab sharoitda soha rahbarlarining faoliyati hamda milliy davlatchilikning huquqiy poydevorini yaratishdagi hissasi ilmiy asoslangan.*

Kalit so’zlar: *O‘zSSR, Adliya vazirligi, sud-ekspertiza, notariat, FHDYo, yuridik xizmat, qonunchilik, huquqiy islohotlar, yuriskonsult, "Paxta ishi", Bahodir Olimjonov, “Qayta qurish” siyosati, TDYI, Mamlakat Vosiqova.*

O‘zSSRda adliya, sud va prokuratura organlarining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan muhim islohotlar 1970-yilda izchillik bilan boshlab yuborildi. Vaziyatni yaxshilash uchun shu yil 30-iyulda Kommunistik partiya va SSSR hukumati «Sud va prokuratura organlari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida» maxsus qaror qabul qildi. Butun Ittifoq bo‘ylab, jumladan, O‘zbekistonda Adliya vazirligi hamda uning hududiy bo‘limlarini qaytadan tashkil etish to‘g‘ri qaror deb topildi[1].

Adliya vazirligi va uning joylardagi bo‘linmalarini qayta tiklash bo‘yicha 1970-yil 31-avgustdagi Farmonga ko‘ra amaliy chora-tadbirlar ko‘rildi. Shu yil 12-avgustdagi Farmonda Adliya vazirligining asosiy funksiyalari belgilab berilib, ushbu hujjat soha faoliyatining huquqiy poydevori sifatida xizmat qildi[2].

1970-yil 1-oktyabrda O‘zSSRda Adliya vazirligi faoliyati to‘liq qayta tiklandi[3]. 1972-yil 27-sentyabrdagi qaror bilan Nizom ham tasdiqlanib[4], vazirlik vazifalari va vakolatlari belgilandi. Shundan so‘ng, ilgari faoliyat yuritib kelgan Yuridik komissiyalar tugatilib, ularning funksiyalari Adliya vazirligiga o‘tkazildi.

Yangi vazirlik o‘zining asosiy funksiyalarini saqlagan holda sotsialistik qonunchilikni mustahkamlash, davlat mulki va huquqiy manfaatlarni himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda xo‘jalik subyektlarida huquqiy intizomni kuchaytirishga mas’ul etib belgilandi. Shuningdek, uning zimmasiga notariat, FHDYo, advokatura va sud-ekspertiza faoliyatini muvofiqlashtirish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etish hamda tizimni malakali kadrlar, yosh mutaxassislar bilan ta’minlash vazifalari yuklatildi.

Manbalarni o‘rganishimiz natijasida aniqlandiki, 1970-yil 23-noyabrda Mamlakat Vosiqova[5] Yustitsiya vaziri lavozimiga tayinlanib, uning faoliyat yillarida 1972-yil 27-sentyabrda vazirlik faoliyatini tartibga soluvchi yangi Nizom qabul qilingan.

1970-yil 10-dekabrda maxsus Qonun (565-VIII-sonli) qabul qilinib, adliya organlarini tuzish haqidagi farmon rasman tasdiqlandi va buning natijasida SSSR Konstitutsiyasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi. Yangi tashkil etilgan O‘zSSR Adliya vazirligi tizimi ancha kengayib, tarkibiga Respublika sud ekspertizasi muassasalari, viloyat va shahar Kengashlari huzuridagi hududiy adliya bo‘limlari, notarial idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari, laboratoriyalar, o‘quv yurtlari hamda boshqa barcha huquqiy va idoraviy tashkilotlar kiritildi.

Shuningdek, SSSR Yustitsiya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarining faoliyati 1972-yil 21-martdagi 194-sonli qaror bilan mustahkamlab qo‘yildi. Ushbu hujjat vazirlikning huquqiy maqomini belgilab, uning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab berdi. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq[6], O‘zSSR Yustitsiya ministrligi vakolatlari va vazifalari aniq belgilab qo‘yildi.

Ushbu davrda vazirlik tomonidan jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar faoliyatini samarali tashkil etish hamda ularning ish sifatini oshirish yo‘lida muhim

chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bundan tashqari, belgilangan tartibda xalqaro huquqiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar yuklatildi. Adliya vazirligiga notariat, FHDYo organlari, advokatura hamda Toshkentdagi sud-ekspertiza ilmiy-tadqiqot institutining faoliyatini muvofiqlashtirish topshirildi.

Qayta qurish davrigacha bo‘lgan oraliqda notariat sohasidagi qonunchilikning eng e’tiborga molik islohoti 1973-yilga to‘g‘ri keladi. Aynan shu yili «Davlat notariati to‘g‘risida»gi Qonun[7] hamda O‘zSSR Oliy Sovetining 1974-yil 7-avgustdagi Qonuni qabul qilinib, ushbu sohada huquqiy asoslarni mustahkamlash yo‘lida muhim hujjat sifatida o‘z o‘rnini egalladi[8].

1970-1980-yillar davomida Yustitsiya vazirligi sud tizimining tashkiliy jihatdan faoliyatini yanada samarali yo‘lga qo‘yishga harakat qildi. Ayniqsa, poraxo‘rlik, chayqovchilik, davlat mulkini o‘zlashtirish, yo‘l harakati xavfsizligiga oid qoidabuzarliklar bo‘yicha sud amaliyoti umumlashtirildi.

Shu bilan birga, Yustitsiya vazirligi hay’ati tomonidan tashkilot va idoralarda yuridik xizmatlar faoliyati holati, ayollar va voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini himoya qilish masalalari muhokama qilinib, aholining huquqiy manfaatlarini ta’minlashga doir dolzarb takliflar Respublika darajasidagi davlat organlariga kiritildi.

XX asrning 70-80-yillarida adliya tizimi faqat vazirlik darajasida emas, balki quyi boshqarmalar orqali ham aholiga huquqiy tushunchalarni yetkazish, qonunchilikni ommaviy targ‘ib qilish ishlari bo‘yicha faoliyat olib bordi.

Ta’kidlash joizki, notariat va FHDYo idoralarining adliya tizimiga o‘tkazilishi davlat budjetiga sezilarli daromad keltira boshladi. Biroq shuncha daromad keltirishiga qaramay, mazkur muassasalarning o‘zi moddiy jihatdan o‘ta nochor ahvolda qoldi. Mahalliy hokimiyatlar ularga deyarli mablag‘ ajratmadi, Respublika budjetidan ajratiladigan mablag‘lar esa juda cheklangan edi. Oqibatda ko‘p hollarda ushbu idoralar eski yoki o‘z faoliyatiga mutlaqo mos kelmaydigan binolarda ishlashga majbur bo‘ldi. Idoralarda qog‘oz, yozuv mashinkalari, orgtexnika va mebellar yetishmasdi. Eng yomoni, ish hajmi katta bo‘lishiga

qaramay, tizimdagi xodimlar soni belgilangan me’yordan deyarli ikki barobar kam edi.

1970-yil 23-dekabrda «Xalq xo‘jaligida huquqiy ishlarni yaxshilash to‘g‘risida»gi hamda 1971-yil 15-fevral kuni notariatga oid muhim qarorlar qabul qilindi[9]. Unga ko‘ra, yuridik bo‘limlari tashkil qilinmagan muassasalarda yuriskonsult lavozimi joriy etilib, huquqiy targ‘ibot ishlarini kuchaytirish va mehnat qonunchiligini keng targ‘ib qilish vazifalari belgilandi.

SSSR Ministrlar Soveti tomonidan 1972-yil 22-iyunda qabul qilingan 467-sonli qarori bilan «Vazirliklar, idoralar, mehnatkashlar deputatlari Sovetlari ijroiya qo‘mitalari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning yuridik bo‘limlari, bosh yuriskonsultlari hamda yuriskonsultlari to‘g‘risida»gi Umumiy nizom tasdiqlandi. Mazkur Nizom ilk bor yuridik xizmatning asosiy vazifalari, vakolatlari, xodimlarning huquqlari va majburiyatlari hamda qonunchilikka rioya qilinishiga mas’ulligini aniq belgilab, yuristlarga nisbatan mustaqil ishlash imkonini yaratdi.

1973-yil 6-iyulda Hukumatning 283-sonli qarorida mahalliy ijro organlari faoliyatida yuridik xizmatlarning rolini kuchaytirish zarurligi alohida ta’kidlangan edi[10]. Davlat va jamiyat boshqaruvi bilan bog‘liq lavozimlarni yuridik mutaxassislar bilan to‘ldirishga e’tibor berilib, viloyatlarning ijroiya qo‘mitalari tarkibida maxsus yuridik bo‘limlar tuzildi.

O‘zSSR Ministrlar Sovetining 401-sonli qarori bilan vazirlik va tashkilotlarga yuridik xizmatlarni mustahkamlash, yuristlarni o‘z vazifasidan boshqa ishlarga jalb qilmaslik hamda shartnomalar tuzish va ularning ijrosida yuridik xodimlarning ta’siri va mas’uliyatini oshirish vazifasi yuklatildi[11].

O‘zSSR Hukumatining 1974-yil 2-apreldagi 142-sonli qarori qishloq xo‘jaligida huquqiy faoliyatni rivojlantirish hamda sohadagi huquqiy ishlarning holatini yaxshilab, yuzaga kelgan muammolarga tizimli yondashishni ustuvor yo‘nalish etib belgilagan muhim qadam bo‘ldi.

Yustitsiya ministrligi tomonidan vazirliklar va boshqarmalar tarkibida arbitraj ishlari va yuridik xizmatlarni tashkil etishga e’tibor kuchaytirildi. Bu yo‘nalishda

1975-yil 25-iyunda qabul qilingan SSSR MQ va Ministrlar Sovetining 425-sonli, 1975-yil 30-iyuldagi 558-sonli qarorida va 1976-yil 8-dekabrda O‘zSSR Ministrlar Sovetining 677-sonli qarorida[12] yuridik xizmatlar uchun axborot materiallarini tayyorlash va nashr etish vazifasi adliya muassasalariga yuklatilib, vazirlik va idoralar ichida Adliya vazirligining mavqeyi mustahkamlandi.

«O‘zSSR mehnatkashlar deputatlari mahalliy Sovetlari ijroiya qo‘mitalariga huquqiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash to‘g‘risida»gi qarorda[13] mahalliy ijroiya qo‘mitalariga yuriskonsult shtatitini kiritish, jamoatchilik asosida yuridik maslahatxonalar tashkil etish yuklatildi. 1978-yil 21-dekabrda qabul qilingan «O‘zSSR Ministrlar Soveti to‘g‘risida»gi Qonunning 13-moddasiga muvofiq davlat organlari va muassasalarda huquqiy ishlarni tashkil qilishni ta’minlash belgilangan[14].

1970-1980-yillar davomida vazirlik tomonidan davlat va jamiyat hayotining turli jabhalariga doir qonun va qonunosti loyihalarini ishlab chiqishda katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. Xususan, ushbu yillarda Yer (1970), Mehnat (1971), Suv (1972), Grajdanlik (1974), Grajdanlik protsessual kodekslari (1975) qabul qilindi[15].

Shuningdek, 1977-yil 7-oktyabrda SSRIning yangi Konstitutsiyasi qabul qilinib, uning asosida 1978-yil 19-aprelda O‘zSSR Oliy Sovetining navbatdan tashqari to‘qqizinchi chaqiriq VI sessiyasida yangi Konstitutsiya qabul qilindi[16]. Ushbu davrda Adliya vazirligi muhim qonun loyihalarini yaratishda faol ishtirok etdi[17].

1983-yildan boshlab keng ko‘lamda boshlanib ketgan «paxta ishi» nomi bilan tanilgan tergov va qatag‘on jarayonlari tufayli huquq tizimida faoliyat yuritayotgan ko‘plab sud, prokuratura va adliya xodimlariga nisbatan shubha uyg‘otilib, bu holat halol mehnat qilayotgan rahbar va xodimlarni ham tizimdan chetlatdi. 1984-yil 15-avgustdan boshlab Yustitsiya vaziri lavozimiga tayinlangan No‘mon Bo‘rixo‘jayev ham aynan shu jarayonda lavozimidan chetlatilgan rahbarlardan biri bo‘ldi.

Ammo uning qisqa boshqaruv davrida, 1984-yil 22-oktyabrdan vazirliklar, idoralar va mahalliy ijroiya organlari zimmasiga yuridik xizmatni yanada kuchaytirish yuklatilib, yuriskonsult lavozimi yo‘q ko‘plab korxona va muassasalarda joriy etildi[18].

1985-yilning yanvaridan Yustitsiya vaziri lavozimiga Bahodir Olimjonov[19] tayinlanib, uning rahbarlik faoliyati murakkab va ziddiyatli tarixiy davrga to‘g‘ri keldi. Chunki 1980-yillar oxiriga kelib, SSSR ich-ichidan yemirila boshlagan va Ittifoq respublikalari hududida mavjud tuzumga qarshi noroziliklar avj olgan edi.

1985-yilda yo‘lga qo‘yilgan «Qayta qurish» siyosati amalda sezilarli natija bermay, asosan quruq shiorlar va bajarilmagan va’dalar darajasida qolib ketdi. Adliya tizimi xodimlari mazkur siyosatni hayotga tatbiq etishga intilishgan bo‘lsa-da, joylarda buning uchun yetarli shart-sharoit hamda imkoniyatlar kam edi.

Ayniqsa, SSSR, xususan O‘zSSRda 1985-yil iyundan boshlangan «Spirtli ichimliklarga qarshi kurash» siyosati[20] minglab gektar uzumzorlar, bog‘-rog‘lar yo‘q qilinishi bilan iqtisodiy va ijtimoiy salbiy oqibatlarini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, islohotlar niqobi ostida mamlakatga mahalliy hayot va qadriyatlarni mutlaqo bilmaydigan huquqshunoslar yuborilib, ular ko‘plab rahbarlar va mutaxassislar ustidan asossiz tekshiruvlar hamda tazyiqlar o‘tkazishga kirishdilar. Natijada respublikadagi adolatli adliya tizimi xodimlari, yetuk yuristlar, sudyalarning bir qismi lavozimidan chetlatildi. Ayrimlarining esa qamoqqa olinib, asossiz jazolarga tortilishi davlat tizimida adolatsizlik va ishonchsizlikni kuchaytirdi.

Markaziy hokimiyatning tazyiqi hamda o‘z xalqining huquqlari toptalayotganiga guvoh bo‘lish B.Olimjonov faoliyatining murakkab va ikki tomonlama xarakterini belgilab bergan omillardandir. Shunga qaramay, u murakkab davr sinovlarida ham o‘z vakolati doirasida qonuniylik va adolat mezonlarini ustuvor bilgan, kasbiy hamda insoniy burchiga mas’uliyat bilan yondashgan rahbarlardan biri bo‘ldi.

1980-yillarning oxirlariga kelib O‘zbekistonda milliy mustaqillik g‘oyalari yanada kuchaydi va jamiyat hayotidagi tub burilishlar yangi qonunlarni yaratish hamda islohotlarni huquqiy jihatdan kafolatlashni dolzarb vazifaga aylantirdi.

Shu bilan bir qatorda, mustaqillik arafasida va undan oldingi davrda qabul qilingan qator muhim normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash hamda ularning ijrosini ta’minlash jarayonlarida Bahodir Olimjonov Adliya vaziri sifatida faol ishtirok etdi. Xususan, 1989-yil 21-oktyabrda «O‘zbekiston SSRning Davlat tili to‘g‘risida»gi tarixiy Qonun qabul qilindi[21]. 1990-yilda u o‘z xohishiga ko‘ra vazirlik lavozimidan ozod etildi.

Ta’kidlash kerakki, 1970-1980-yillar O‘zbekistonda yuridik ta’limning rivojlanish davri bo‘ldi. Shu davrda SamDU qoshida yuridik fakultet (1974), Nukus davlat universitetining tarix fakulteti qoshida huquqshunoslik bo‘limi (1977), Yuridik texnikum (1977) va Adliya vazirligi qoshida malaka oshirish kurslari (1971) tashkil etildi[22].

Qolaversa, 1990-yilgacha ToshDU yuridik fakultetida kunduzgi, kechki va sirtqi bo‘limlar faoliyat yuritdi. Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash kerakki, 1921-yili Huquqshunoslik institutini atigi 30 nafar talaba bitirgan bo‘lsa, 1980-yilning oxiriga qadar birgina yuridik fakultetni 4 mingdan ortiq mutaxassislar tamomladi. Qolaversa, 1921-yilda Huquqshunoslik institutida atigi 9 nafar, 1989-1990-o‘quv yilida 118 nafar professor-o‘qituvchi dars bergan[23].

O‘zSSR Ministrlar Sovetining 1988-yil 15-sentyabrdagi 329-sonli qarori adliya organlari faoliyatini takomillashtirish, sudlarga ko‘maklashish, yuridik xizmat va huquqiy ta’limni rivojlantirish hamda aholi huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qildi[24].

Bu davrda Ministrlar Soveti huzurida faoliyat yuritgan Arxiv Bosh boshqarmasi tugatilib, uning vakolatlari va ish yurituvi Adliya vazirligiga o‘tkazildi.

SSSR Ministrlar Sovetining 1988-yil 21-maydagi qarori[25] asosida ma’muriy-boshqaruv tizimida tub burilish yasalib, Markaziy apparat tuzilmasi qayta ko‘rib chiqildi. 1988-yil 15-sentyabrdagi 329-sonli qarorga ko‘ra Markaziy apparat

xodimlari soni 92 nafarga yetkazildi. Vazirlikka uchta vazir o‘rinbosari, 7 kishilik hay’at tuzishga ruxsat berilib, hududiy boshqarmalarga 268 shtat birligi ajratildi[26].

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, O‘zSSR Ministrlar Sovetining bir qator muhim tarixiy qarorlari 80-yillardan mustaqillikning dastlabki yillarigacha vazirlik faoliyatining huquqiy asoslarini bajardi[27].

O‘zSSR Ministrlar Sovetining 1988-yil 28-noyabrdagi 443-sonli qarorining[28] qabul qilinishi bilan 1988-yil 15-sentyabrdagi 329-sonli qaror o‘z kuchini yo‘qotdi. Mazkur qaror adliya organlari faoliyatini zamon talablari asosida isloh qilish, demokratik tamoyillarni mustahkamlash, oshkoralikni kengaytirish uchun huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratishga xizmat qildi.

1986-yil 25-fevraldan 6-martgacha KPSS XXVII s’yezdi va XIX Butunittifoq partiya qarorlari asosida Adliya vazirligi oldiga xalq xo‘jaligini samarali boshqarish, viloyat sudlari va yuridik xizmatlar faoliyatini takomillashtirish, qonunchilikni rivojlantirish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy ta’lim tizimini yuksaltirish, sudlar, adliya muassasalari hamda FHDYo organlari faoliyatiga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish yuklatildi.

Mirzo Ulug‘bek Abdusalomov 1989-1990-yillar davomida Yustitsiya vazirining o‘rinbosari, 1990-1991-yillarda esa vazir vazifasini vaqtincha bajaruvchi, 1991-1995-yillarda Adliya vazirining birinchi o‘rinbosari sifatida faoliyat yuritgan. M.Abdusalomovning yuridik tizimdagi xizmatlari muhim tarixiy davrga to‘g‘ri keldi. Uning rahbarlik davrida mamlakatimiz huquqiy asoslarini shakllantirishda muhim hujjatlar[29] ishlab chiqilib, ular mustaqil O‘zbekistonning huquqiy poydevorini yaratishda muhim rol o‘ynadi. 1991-yil 15-avgustda ToshDU tarkibidagi yuridik fakultet Toshkent davlat yuridik instituti nomi bilan ajralib chiqishi bilan yurtimizda birinchi yirik huquqshunoslik instituti tashkil etildi[30].

Aynan M.Abdusalomovning boshqaruv davrida vazirlik hamkor tashkilotlar bilan birgalikda korxonalarni xususiy mulkchilikka o‘tkazish hamda xususiylashtirish, «O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonun loyihasining qonuniy asoslari yaratilishiga boshchilik qildi[31].

Maqolada O‘zSSRda yustitsiya organlari va muassasalarining shakllanishi hamda dastlabki rivojlanish bosqichlari tarixiy-huquqiy jihatdan chuqur o‘rganilib, quyidagi asosiy ilmiy natijalarga erishildi:

Birinchidan, 1970-1980-yillarda O‘zSSR Yustitsiya vazirligi davlat va jamiyat hayotini tartibga soluvchi qonun hamda qonunosti hujjatlari loyihalarini tayyorlashda faol ishtirok etdi. Jumladan, respublikaning Yer, Mehnat va Suv kodekslari aynan shu davrda qabul qilindi. Biroq mazkur normativ-huquqiy hujjatlar sovet huquq tizimining qat’iy markazlashtirilganini va asosan markaz manfaatlariga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Sud hokimiyati mustaqillikdan mahrum etilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri partiya apparati nazoratiga bo‘ysundirildi. Qabul qilingan qonunlar asosan deklarativ xarakterga ega bo‘lib, ularda e’lon qilingan huquq va kafolatlarni hayotga tatbiq etishning amaliy huquqiy mexanizmlari mavjud emas edi.

Ikkinchidan, 1985-1990-yillar oralig‘ida O‘zSSRda yuridik xizmatlar va huquqiy faoliyatni tartibga soluvchi maxsus normativ-huquqiy baza deyarli yangilanmagan. Buning oqibatida davlat boshqaruvi idoralari hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar eskirgan huquqiy normalarga tayanib ishlashga majbur bo‘lgan va bu holat Adliya vazirligining tizimli huquqiy targ‘ibot imkoniyatlarini cheklab qo‘ygan. Shunga qaramay, 1985-yildan boshlangan «qayta qurish» islohotlarining yakuniy bosqichida jamiyatda demokratiya va oshkoralik tamoyillariga intilish keskin kuchaydi. Mazkur geosiyosiy va ijtimoiy jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida SSSR parchalandi va O‘zbekiston o‘zining davlat mustaqilligini qo‘lga kiritdi.

Uchinchidan, Sovet hokimiyati davrida huquqiy tizim asosan Ittifoq markazi qabul qilgan qonunlar asosida ish yuritgan. Garchi bu hujjatlar mahalliy ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga moslashtirilgan bo‘lsa-da, haqiqiy suverenitetni kafolatlamagan, aksincha, markazlashgan nazoratni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, O‘zSSRda yuridik kadrlarni tayyorlash jarayoni bevosita adliya tizimining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rivojlandi va TDYI mazkur sohaning asosiy tayanch kadrlar bazasiga aylandi.

Umuman olganda, respublikadagi adliya tizimi mavjud mafkuraviy-siyosiy hamda iqtisodiy muhit ta’sirida shakllanib, davlat apparatining boshqaruv va mafkuraviy quroli rolini bajardi. Garchi bu davr yustitsiya sohasining keyingi rivoji uchun muayyan institutsional asos vazifasini o‘tagan bo‘lsa-da, u mustaqil va demokratik huquqiy institutlarning to‘laqonli shakllanishiga jiddiy to‘siq bo‘ldi. Shunga qaramasdan, 1980-yillarning oxiriga kelib, mustaqillik ostonasida turgan O‘zSSRda Adliya vazirligi milliy qonunchilik hamda qonunosti hujjatlarini yaratishda yetakchi organga aylandi. Aynan mana shu huquqiy hujjatlar keyinchalik davlat mustaqilligining e’lon qilinishida muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] Постановление ЦК КПСС и Совета Министров СССР «О мерах по улучшению работы судебных и прокурорских органов» от 30 июля 1970 г. // Коммунистическая партия Советского Союза в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК (1898-1986). Т. 11. 1966-1970. - М.: Политиздат, 1986.

[2] «SSSR Adliya vazirligining tashkil etilishi munosabati bilan SSSR qonunchiligiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1971-yil 12-avgustdagi 2013-VIII-sonli Farmoni // SSSR Oliy Soveti Vedomostlari. - 1971. - № 33. - 332-modda.

[3] O‘zbekiston SSR ittifoq-respublika Adliya vazirligini tashkil etish to‘g‘risida. O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1970-yil 1-oktyabrdagi Farmoni // O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining Axborotnomasi. - 1970. - № 28. - 347-modda.

[4] Образование Министерства юстиции Республики Узбекистан и этапы развития. URL: https://gov.uz/ru/adliya/pages/vazirlik-tarixi

[5] M.Vosiqova yustitsiya tizimida rahbarlik faoliyati bilan bir qatorda ilmiy izlanishlarni ham izchil davom ettirdi. U akademik X.Sulaymonovaning hayotiy va ilmiy saboqlaridan dars olib, 1974-yilda yuridik fanlari doktori ilmiy darajasini qo‘lga kiritdi. Uning boshchiligida amaldagi qonunlar 23 jildlik jamlanma shaklida

to‘planib, nashr etildi. U SSSR hukumati tomonidan akademik Vavilov nomidagi oltin medal bilan mukofotlangan hamda YUNESKO tomonidan e’lon qilingan «Jahonga mashhur ayollar» ro‘yxatiga kiritilgan.

[6] Постановление Совета Министров СССР от 21 марта 1972 г. № 194 «Об утверждении Положения о Министерстве юстиции СССР» // Собрание постановлений правительства СССР за 1972 г. № 1-23. - Москва: Юрид. лит.

[7] Закон СССР от 19.07.1973 № 4537-VIII «О государственном нотариате» // Ведомости ВС СССР, 1973, № 30. - С. 393.

[8] O‘zbekiston SSRning Davlat notariati to‘g‘risidagi Qonuni. VII chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining etinchi sessiyasida 1974-yil 7-avgustda qabul qilingan // O‘zbekiston SSR Qonunlari to‘plami. - Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 1974. - B. 46.

[9] Respublikada notariat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1971-yil 15-fevraldagi 60-sonli Qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalarining yagona elektron kutubxona portali. URL: https://api.unilibrary.uz

[10] Sirdaryo viloyati mehnatkashlar deputatlari Soveti ijroiya qo‘mitasida huquqiy ishlarning holati to‘g‘risida. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1973-yil 6-iyuldagi 283-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, R-94-fond, 1-ro‘yxat, 156-yig‘majild, 42-varaq.

[11] O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1973-yil 13-sentyabrdagi «Respublika vazirliklari va idoralarida huquqiy ishlarni kuchaytirish to‘g‘risida»gi 401-sonli qarori // O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining qarorlari to‘plami. - Toshkent, 1973. - № 9. - 185-modda.

[12] O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1976-yil 8-dekabrdagi «Respublika xalq xo‘jaligida xo‘jalik va mehnat qonunchiligiga rioya qilishni ta’minlashda yuridik xizmatlar rolini oshirish to‘g‘risida»gi qarori // O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining qarorlari to‘plami. - Toshkent, 1976. - № 12.

[13] O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining «O‘zSSR mehnatkashlar deputatlari mahalliy Sovetlari ijroiya qo‘mitalariga huquqiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash to‘g‘risida»gi qarori // O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining qarorlari to‘plami. - Toshkent, 1977. - № 8.

[14] Otaxonov F.H. O‘zbekiston Respublikasida yuridik xizmat / Darslik. - Toshkent: TDYI, 2006. - B. 284.

[15] O‘zbekiston SSRning Yer to‘g‘risidagi kodeksi (1970) // O‘zbekiston ovozi, № 228 (14.694); O‘zbekiston SSRning Grajdanlik kodeksi (1974) / Mas’ul muharrirlar H.S.Bobojonov, R.Karimov. - Toshkent: O‘zbekiston, 1975. - B. 278; Grajdanskiy protsessualniy kodeks Uzbekskoy SSR / Otv. za izd. A.A.Yuldashev, T.N.Nigmatov. - Tashkent: Uzbekistan, 1975. - S. 159.

[16] O‘zbekiston SSRning Konstitutsiyasi (Asosiy qonuni) loyihasi va uning umumxalq muhokamasi yakunlari to‘g‘risida. O‘zbekiston SSR Oliy Soveti navbatdan tashqari to‘qqizinchi sessiyasining qarori // Совет Ўзбекистони. - 1978-yil 19-aprel. - № 89 (17082); Котелевская И. В. Органы юстиции в системе государственного управления СССР в 1970-1980-е гг. // Правоведение. - 1985. - № 3. - С. 12-18.

[17] «O‘zbekiston SSR Oliy Sovetiga saylovlar to‘g‘risida» (1978), «O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti to‘g‘risida» (1978), «O‘zbekiston SSR Xalq deputatlari mahalliy Sovetlariga saylovlar to‘g‘risida» (1979), «O‘zbekiston SSR Xalq deputatlari oblast Soveti to‘g‘risida» (1980) hamda «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonun loyihalari.

[18] O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining «Respublika vazirliklari va idoralarida huquqiy ishlar ahvoli va Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi XXIV s‘yezdi talablari asosida ularni yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 1984-yil 22-oktyabrdagi 552-sonli qarori // Совет Ўзбекистони, 1984-yil 23-oktyabr, № 244 (19.020).

[19] Bahodir Olimjonov 1929-yil 15-oktyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1966-1967-yillarda Toshkent shahar prokurori o‘rinbosari, keyinchalik

O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi apparatida katta maslahatchi bo‘lib ishlagan. 1990-1992-yillarda Adliya vazirligi huzuridagi Malaka oshirish markaziga, 1992-1994-yillarda Qonunchilik muammolarini o‘rganish institutiga, 1994-1997-yillarda Sudyalar malakasini oshirish institutiga rahbarlik qilgan. Unga «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist» faxriy unvoni berilgan.

[20] Постановление ЦК КПСС «О мерах по преодолению пьянства и алкоголизма» (7 мая 1985 г.) // Коммунистическая партия СССР в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК (1898-1988). Т. 15. - Москва: Политиздат, 1989.

[21] O‘zbekiston SSR Qonuni «O‘zbekiston SSRning Davlat tili to‘g‘risida» // O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining Vedomostlari. - 1989. - № 30. - 356-modda.

[22] Adliya: shonli 30 yil. - Toshkent: «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi, 2022. - B. 83.

[23] Юридическое образование в Узбекистане: история и современность / Под ред. проф. Х.Р. Рахманкулова. - Ташкент: ТГЮИ, 2001. - С. 24-28.

[24] Sovet Ittifoqi KP (b) MQning XXVII s’yezdi qarorlari va 1988-yil 2-apreldagi «Mamlakatda jinoyatchilikka qarshi kurash holati va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari.

[25] SSSR Ministrlar Sovetining 1988-yil 21-maydagi 650-sonli Qarori // O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, M-1-fond, 1-ro‘yxat, 1988-yilga oid yig‘majild, 12-varaq.

[26] O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining «O‘zbekiston SSR Adliya vazirligining boshqaruv sxemasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 1988-yil 15-sentyabrdagi 329-sonli qarori. URL: https://www.lex.uz/docs/5056654

[27] O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining «O‘zbekiston SSR Yustitsiya ministrligi markaziy apparatining tuzilmasi va vakolatini o‘zgartirish to‘g‘risida»gi 1980-yil 18-yanvardagi 676-sonli, 1986-yil 16-iyuldagi 24-sonli, 341-sonli hamda 1986-yil 31-dekabrdagi 621-sonli qarorlari.

[28] O‘zbekiston SSR Yustitsiya ministrligining boshqaruv sxemasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1988-yil 28-noyabrdagi 443-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, M-1-fond, 1-ro‘yxat, 1988-yilga oid yig‘majild, 84-varaq.

[29] «O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasi» hamda «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonun loyihalari. URL: https://lex.uz/docs/-185391, https://lex.uz/acts/-127899

[30] V.Lenin nomidagi Toshkent davlat dorilfununi huzuridagi yuridik institutini Toshkent davlat yuridik institutiga aylantirish haqida. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1991-yil 15-avgustdagi 221-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, M-1-fond, 1-ro‘yxat, 1991-yilga oid yig‘majild, 114-varaq. URL: https://lex.uz/docs/-2326348

[31] O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi xususida // Qishloq hayoti, 1990-yil 21-iyun, № 140 (4.933); Закон Узбекской ССР «О государственном языке Узбекской ССР» (24 октября 1989 г., № 243-244).